

TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Xolboyeva Dildora To'lqin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy tillar 2- fakulteti 2- bosqich talabasi
dildoraxolboyeva588@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlanib borayotgan zamonaviy ta'lim sohasida yangidan yangi yondashilgan metodlar orqali yuqori natijalarga erishish va bilimni mustahkamlash borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Innovatsion, didaktika, DTC, metodika, klaster, illustratsiya, demonstratsiya.

KIRISH

Bilamizki hozirgi raqamli asrda o'qituvchilar orasida ma'lumotlarni o'quvchilarga samarali tarzda yetkazib berish maqsadida turli usullardan foydalanib kelinadi. Shu bilan birga ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash pedagogikada sifat va samaradorlik omili hisoblanadi. Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilar o'quv bilish faoliyatini tashkil etish yo'llari tushuniladi. Shu o'rinda Adolf distervergning so'zlariga e'tibor berib o'tsak "yaxshi o'qituvchi-bolalarga haqiqatni so'zlab beradi, buyuk o'qituvchi esa o'sha haqiqatga olib boruvchi yo 'Ini ko'rsatadi". Buning negizida esa pedagoglarning qanday usullardan va metodlardan foydalana olishi yotadi.

Metodika-bu xususiy didaktika ya'ni biror bir fanni o'qitish nazariyasi bo'lib, o'zaro ta'sir etishning turli shakllarini o'rganish asosida biror fanni o'qitish va o'rganish yo'llarini o'quv fani metodikasi ishlab chiqadi. Bu tizimlar DTC o'quv dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta'lim mazmunida o'z aksini topadi hamda ta'lim metodlar, shakllari va vositalari orqali amalga oshadi. O'quv fani metodikasi didaktika bilan mustahkam bog'langan.

An'anaviy ta'lim metodlari:

Og'zaki-hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza munozara;

Ko'rgazmali-illustratsiya, demonstratsiya.

Quyidagi yondashuvlar orqali o'quvchi o'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilinadi. Bular,

-erkin yozish;

-klaster;

-aqliy hujum;

-B-B-B (bilamiz, bilishni hohlaymiz, bildik) chizmasi;

-chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi;

-semantik xususiyatlar tahlili.

Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda, dars davomida ko'proq foyda samara keltiruvchi metodlar bilan tanishib chiqamiz.

"SUGGESTOPEDIA" - Aqshda bu nom bilan keng tarqalgan metod ko'plab tanqid ostida bo'lgan, ammo uning natijalari hayratlanarlidir. Bu bilan dars harakatda o'tkaziladi, shuningdek materialni qabul qilishni yengillashtirish maqsadida musiqiy ta'sir ko'rsatiladi,

doimiy ravishda multimedia vositalaridan foydalaniladi. "SOCRATIC SEMINAR" - ushbu metod faylasuf Suqrotning behisob savollar berishi yordamida ta'lim berish usuliga asoslangan. O'qituvchi ketma ket savollar berishi natijasida talabalarning mavzuni tushunganliklarini bilib oladi.

"PHILOSOPHICAL CHAIR" - metodi debatga o'xshaydi. O'quvchilarga asosiy mavzu va savollar beriladi. Ular bildirilgan fikrga qo'shilishlari, norozi bo'lishlari, yoki betaraf qolishlari mumkin. Bu metod jonli munozara tashkil etishga hissa qo'shadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytganda, ta'lim sifatini nazorat qilish maqsadida to'g'ri metodlardan foydalana olish ularga samarali yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek ko'rib chiqilgan metodlarni ham osonlashtirish va foydali bo'lishi uchun axborot vositalari hamda xona jihozlari ham katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari, Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O.Musurmonova. Umumiy pedagogika bakalavriat 2-kurs talabalari uchun qo'llanma (180,188,190-betlar). Toshkent, 2020.
2. Integration of pragmalinguistics functional translation studies and language teaching process.
3. INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. www.manzura90.zn/uzinterfaol-metodlari
4. 4.VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
5. Ахназарова, Д. Э. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ. *Universum: психология и образование*, (9 (III)), 23-24.
6. Akhnazarova D. THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF CREATIVITY IN PSYCHOLOGY //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B5. – С. 343-346.

7. Ахназарова Д. Э. TALABALARDA IJODKORLIK QOBILIYAT XUSUSIYATLARINI NAMOYON BO 'LISHINING O 'ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI: Axnazarova Diyora Erkin qizi Guliston Davlat Universiteti stajor-tadqiqotchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 8. – С. 96-99.